SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY QO'RIQXONASI

"O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MUZEYLARNING O'RNI (QASHQADARYO MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARI VA MUZEYLARI MISOLIDA)" MAVZUSIDAGI

III XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

20-MAY, 2023-YIL

XODIMLAR BO'LIMI

ASLIGA TO'G'RI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY-QO‘RIQXONASI
QASHQADARYO VILOYAT TARIXI VA MADANIYATI DAVLAT MUZEYI
HAMKORLIGIDA

“O‘ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY MUZEYLARNING O‘RNI (QASHQADARYO MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARI VA MUZEYLARI MISOLIDA)”

MAVZUSIDAGI

III XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
20-MAY, 2023-YIL

"THE ROLE OF HISTORICAL MUSEUMS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN (IN THE CASE OF MATERIAL AND CULTURAL MONUMENTS AND MUSEUMS OF KASHKADARYA)"

INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE
MAY 23, 2023

“РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ МУЗЕЕВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ МАТЕРИАЛЬНО - КУЛЬТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ И МУЗЕЕВ КАШКАДАРЬИ)”

III МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ

23-МАЙ 2023 г.

Shahrisabz – 2023

XODIMLAR BO‘LIMI
ASLIGA TO’G’RI

ANJUMAN TASHKILIY QO'MITASINING TARKIBI

Shonazarov J.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti rektori v.v.b., rais
Marasulova U.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais o'rinbosari
Xudoyqulov T.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'quv ishlari bo'yicha prorektor, a'zo
Omonov B.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasi mudiri, a'zo
Rahimov Z.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Pedagogika" kafedrasi mudiri, p.f.d. , a'zo
Muhammadiyev A.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Tillar" fakulteti dekani, a'zo
Tilayev E.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlar" fakulteti dekani, a'zo
Imomov M.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Pedagogika" fakulteti dekani, a'zo
Hamrayev Sh.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi mudiri, a'zo
Qo'qonboyeva D.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo
Qurbonova D	Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, a'zo
Xushvaqov N.	Shahrisabz davlat muzey qo'riqxonasi bosh direktori, a'zo
Mamadiyev B.	Qashqadaryo viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi direktori, a'zo
Kosanbayeva	Qozog'iston , Chimkent "Miras" universiteti professori, a'zo
Xudayberganova Z	Turkiya Respublikasi Bartin universiteti professori, a'zo
Vohidov Sh.	Tojikiston Panjikent pedagogika instituti, a'zo
Nomozov X.	Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi, a'zo

Taqrizchilar:
Tarix fanlari doktori, professor ***B.Eshov***
Tarix fanlari doktori, dotsent ***T. Xudoyqulov***

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent U.Marasulovaning umumiy tahriri ostida
To'plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'uldirlar.
Shahrisabz davlat pedagogika institutining 2023-yil 12-maydagi navbatdan tashqari yig'ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

ta'minlash mumkin. Ammo shaxsiy tarkib ma'naviy jihatdan zaif bo'lsa, ya'ni askar va ofitserlarimizda jangovar ruh, Vatanga mehr va sadoqat, uning taqdiri uchun mas'uliyat bo'lmasa yoki ularning o'rtasida beparvolik hukm sursa, bunday holat nihoyatda noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin"[2-162]. Rostdan ham aynan Xorazmshohning kaltabin siyosati, o'z manfaatini yurt kelajagidan ustun qo'yganligi butun boshli davlatning zavolga yuz tutishiga olib keldi. Agar butun boshli davlat birlashib, Chingizxonga qarshi kurashish uchun yakdil rejani tuzib chiqqanda davlat taqdirini ijobiy hal qilish mumkin edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh. Mirziyoyev " Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko'taramiz" 1-tom " O'zbekiston " 2017

2.Sh.M.Mirziyoyev." Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-tom,"O'zbekiston". 2018

3. Iso Jabborov "Buyuk Xorazmshohlar davlati" " Sharq" nashriyoti 1999

4.B.T.Hayitov "Xorazmshohlar davlati halokatining ayrim jihatlari"

5.Sardorali Nurmatov "Xorazmshohlar davlatining qulashi yoxud Chingizxon diplomatik hiylasi (1-qism)

6.Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy"Siyrat as- sulton Jaloliddin mankburni", "Yozuvchi" nashriyoti 1999-yil

ILK O'RTA ASRLAR NAXSHAB TARIXIGA DOIR AYRIM MANBALAR TASNIFI

Baratov Xamidullo

ShDPI o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Ilk O'rta asrda Janubiy Sug'd tarkibiga kiruvchi Naxshab hokimligi tarixiga oid Sug'diy, xitoy qadimgi yunon, rim, arman, arab-fors tilidagi manbalari tasnifi yoritildi. Maqolada manba guruhlarga bo'linib tasnif etilib ma'lumotlarni arxeologik izlanishlar orqali topilgan manbalar bilan qiyosiy tahlili yoritildi.

Kalit so'zlar: Naxshab, Avesto, Mug' tog'i hujjatlari, Bey-shu yilnomasi.

Аннотация: В раннем средневековье особое внимание уделялось классификации согдийских, китайских, древнегреческих, римских, армянских, арабо-персидских источников, связанных с историей Нахлабского наместничества, входившего в состав Южной Согдийской области. В статье источники были классифицированы по группам и выделен сравнительный анализ данных с источниками, найденными в результате археологических исследований.

Ключевые слова: Нахшба, Авеста, документы горы Муг, ежегодник Бэй-шу.

Annotation: In the early Middle Ages, the classification of Sugdian, Chinese, ancient Greek, Roman, Armenian, Arabic-Persian sources related to the history of the Nakhlab governorship, which was part of Southern Sugd, was

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

highlighted. In the article, the sources were classified into groups and a comparative analysis of the data with the sources found through archaeological research was highlighted.

Key words: Nakhab, Avesta, documents of Mugh mountain, Bei-shu yearbook.

Kirish. Jamiyatda tarix va unga yordamchi fanlar rolining o'sib borishi natijasida bu fanlarning oldida turgan dolzarb muammolar ko'lami tobora yaqqol namoyon bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning bir guruh tarixchi olimlar bilan suhbati chog'ida – "Modomiki o'z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo'lmas ekan, biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni, millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur" [1. 24-25 b]- degan so'zlari tarixchi olimlar zimmasiga haqqoniy tarixni yaratishdek mashaqqatli hamda sharafli vazifani yukladi. Mustaqillik yillarida o'z tariximizni yozish maqsadida ko'plab tarixshunoslik asarlari yaratildi. O'zbekiston hududida yashagan xalqlarning, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy, tarixiy-geografik jarayonlarini qamrab olgan tadqiqotlar yuzaga keldi. Bunday tadqiqotlar jumlasiga Sug'd konfederatsiyasi tarixiga doir tadqiqotlarni misol tariqasida ko'rsatish mumkin. O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston xalqlari tarixida qadimiy va ilk o'rta asr Sug'd konfederatsiyasining o'rni va ahamiyatini belgilovchi ma'lumotlar mavjud. Aynan Sug'd konfediratsiyasiga kiruvchi Naxshab hokimligi haqida ham uning ilk o'rta asrlar O'zbek davlatchiligida o'rni masalasi bo'yicha oz bo'lsada tadqiqotlar yaratildi.

Adabiyotlar tahlili. Naxshabning mintaqadagi o'rni, tarixiy geografiyasi va siyosiy hayoti masalalarini alohida tadqiq etish fan oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanib ushbu doirada ish olib borishda manbalarni o'rganish asosiy o'rin tutadi. Naxshabning siyosiy tarixiga oid birinchi ilmiy asar fransuz tadqiqotchisi Allot de-la Fyuga tegishlidir. Allot de-la Fyu XX asrning birinchi choragida Markaziy Osiyodan topilgan ko'p miqdordagi ilk bosqich sug'dcha yozuvli kumush tangalarni tasnif va talqin qilish bilan shug'ullangan. O'tgan asr o'rtalaridan buyon chop etib kelingan akademik nashrlarda, jumladan, 1950-yilda nashr etilgan "O'zbekiston xalqlarining tarixi" nomli tadqiqotda biz o'rganayotgan ilk o'rta asrlar Naxshab tarixiga oid yozma manbalar tahlili asosida bir qator qimmatli ma'lumotlar keltirilgan [2. 474 b]. 1970-yilda chop etilgan "Sug'd tarixidan lavhalar" kitobida O.I.Smirnova Sug'dning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hamda hukmdorliklarning ma'muriy tuzulishini sug'd, arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida tahlil qildi [3. 288 b]. R.X. Sulaymonovning 2000-yilda nashr etilgan "Qadimgi Naxshab" nomli monografiyasi qadimgi Sug'dning madaniyati va tarixiga bag'ishlandi [4. 342 b]. Asarning I bobida yozma manbalar va arxeologik materiallar asosida o'lkada shaharsozlik madaniyati, qasrlar qurilishi misolida VII-VIII asrlarda mayda hokimliklarning mustaqillikka intilishi va markaziy hokimiyat ta'sirining yo'qolib borishi, nihoyat, bu holat xoqonlik hokimiyatining inqiroziy holatga tushishi arafasida o'z yuqori cho'qqisiga yetganligi tahlil etilgan [4. 62-72 b].

XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda Naxshab tarixiga oid manbalarni o'rganishda tizimlashtirish va xolislik tamoyillaridan foydalanilib, manbalarni tarixiy-qiyosiy va davrlashtirish, tarixiylik metodlari orqali tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Ilk O'rta asrlarda Janubiy Sug'd mulki Naxshab tarixiga oid eng qadimgi manba "Avesto" bo'lib . mil.avv. 1 ming yillikka taalluqlidir. Naxshab tarixi haqida ma'lumot beruvchi yunon, xitoy, qadimgi fors va arab manbalarida ham geografik, iqtisodiy, siyosiy ma'lumotlar aks etgan bo'lib, ularni tarixiy manba sifatida tadqiq etish bugungi kun muhim vazifasiga aylangan. Shu sababli Ilk o'rta asrlarda Naxshab tarixiga oid manbalarni guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

1-guruh Mahalliy manbalar. Naxshabning nomi haqidagi eng qadimgi ma'lumot mil. avv. IV asrga oid Afg'onistondan topilgan oromiy hujjatlarida Nikshapaya (Nikshapa) shaklida uchraydi.

Sug'd konfederatsiyasi tarixiga doir birlamchi manbalardan biri – Mug' tog'i sug'diy hujjatlari hisoblanadi. Ularda Sug'd konfederatsiyasi tarkibiga kiruvchi hukumdorliklar (Maymurg', Kesh, Naxshab, Ishtixon, Panch) o'rtasidagi ichki munosabatlar hamda ushbu hukmdorliklar tarkibidagi alohida mulklarning boshqaruvdagi o'rni masalasi to'g'risida, konfederatsiyalashuvning bosh sharti hisoblangan tashqi dushman hujumiga qarshi birgalikda kurashish bilan bog'liq jarayonlarda keltirilgan. Ushbu manbalar asosida Naxshab hukumdorligining konfederatsiya tarkibidagi mulklar va markaz Samarqand bilan aloqasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

2-guruh Qadimgi yunon, rim, arman tarixchi va geograflari asarlari. Yunon muarrixlari Aleksandr Makedonskiyning Markaziy Osiyoga qilgan yurishi haqida hikoya qilganlarida, So'g'd va uning janglar kechgan viloyatlari haqida ham so'zlab o'tadilar. Masalan Arrian "Bessga Aleksandr yaqinlab qolganini aytganlariga, u Oksdan (Amudaryo) suzib o'tadi, qayiqlarni esa yondirib, So'g'd yeriga, Navtoqqa ketadi" [5. 92 b], deydi. "O'zbekiston tarixi manbalari" kitobini tuzgan prof. B.V.Lunin "Navtoq"qa: "hozirgi vaqtda Navtaka (Nautaki) xarobasini Markaziy Osiyoning eng katta shaharlaridan biri — Yerqo'rg'on deb qarashga barcha asoslar yetarli, chunki uning o'rnida antik davr Sug'd shahriga xos bo'lgan madaniy qatlamlar saqlanib qolgan" [6. 92 b], degan izohni beradi.

Arman tarixchi va geograflari Sebeos, Ananiya Shirakatsi, Moisey Kalankavatsi, Moisey Xorenatsi kabi olimlarning asarlarida ham Naxshab hududi va unga kiruvchi mulkliklar tarixiy geografiyasi va toponomikasi haqida muhim ma'lumotlar qoldirilgan. Masalan 580- yillar oxirida Hirot tevaragida Turk xoqonini yenggan Sosoniylar qo'shinining Vexrod (Amudaryo)dan kechib "Kazbion" deb ataladigan mavzegacha yetib borgani [7] to'g'risida asarlarda eslatib o'tiladi va bu ma'lumotlar ko'plab muhokamalarga sabab bo'layotgan "Kazbion" hozirgi qaysi hududlarga to'g'ri kelishi masalasini birmuncha oydinlashtirdi.

3-guruh Xitoy manbalari. Sug'd tarixiga oid manbalar haqida to'xtalar ekanmiz Xitoy manbalari tasnifini ham kiritib o'tish joiz albatta. Aynan Naxshab tarixiga oid siyosiy-ijtimoiy madaniy ma'lumotlar Xitoy yilnomalarida o'z aksini

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

topgan. Xususan, Xitoy yilnomalarida Sug'd "Su-li", Samarqand esa "Kan" deb nomlanadi [8]. Xitoy ma'muriy terminologiyasiga qaraganda Kesh va Buxoro ham Su-liga qarashli bo'lgan. "Bey-shi" ("Shimoliy sulolalar tirxi"), "Suy-shu" ("Suy sulolasi tarixi"), "Tan-shu" ("Tan sulolasi tarixi") kabi yilnomalar va Syuan Szan (629-645), Xoy Chao singari sayyohlarining esdaliklarida Sug'd, xususan, Naxshab tarixiga oid ma'lumotlar uchraydi [8, 112-114, 126-131, 135-136, 260-267, 285-288, 310-318,321-325 b]. VIII asr boshlarida Sug'dga Qashqadaryo vohasi ham kirganligi Qutayba bilan G'urak o'rtasida tuzilgan 712-yilgi Samarqand shartnomasida aniq belgilangan. Janubiy Sug'd ya'ni Qashqadaryo vodiysi tarkibiga o'z navbatida Kesh va Naxshab [9] hukmdorliklari kirgan. Naxshab hukmdori esa Kesh podshosiga bo'ysingan [10] degan fikrlar ham mavjud. Xitoy manbalarida keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor qilinsa, Naxshabning Kesh tarkibida bo'lganligini anglashiladi. Ammo Naxshab hukmdorlari qadimdan o'z nomlaridan tanga-pul zarb etganliklari ma'lum. Xitoylik mualliflar Naxshabning ma'muriy chegaralarini keltirishda xatolikka yo'l qo'yishgan. Ularda Naxshab Eron bilan chegaradosh deb keltiriladi. Balki, bu o'rinda yilnoma mualliflari bir muddat Sug'dga Amudaryo orqali chegardosh bo'lgan Sosoniylar davlatini nazarda tutishgandir. Xitoy yilnomalarida Naxshab hukmdor xonadonlarini *chjaou-lar* deb ataydi.

Arab geograflari va tarixchilari asarlari. Musulmon yozma manbalarida Janubiy Sug'd shaharlari Kesh va Naxshabning nomlari dastavval VII asr oxiri VIII asr boshlarida qo'llanilgan.

Arab geograflari ichida eng dastlabki ma'lumotlarni qoldirgan ibn Xordadbeh [11] Nasaf (Naxshab)ni Samarqandga bo'ysunuvchi shaharlar jumlasiga kiritib, Nasafdan xalifalik xazinasiga 90 ming dirham xiroj tushganligini qayd etgan. Ushbu ma'lumot asosida Naxshabning siyosiy mustaqillik haqida fikrlarimizni dalillash imkonini beradi.

Tabariyning "Tarixi-at-Tabariy" kitobida Movarounnahr, xususan, Naxshab tarixiga oid, VIII-XI asrlardagi tarixiy voqeliklar xronologik tartibda bayon etishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Tojikistonda Nizomulmulkning "Siyosatnoma"si, Abu Rayhon Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari chop etildi. Bu kitoblarda Qashqa vohasida VIII asrlarda kechgan arablar istilosi, Muqanna boshliq xalq isyoni haqida qiziqarli ma'lumotlar mavjuddir.

Arab muallifi Al-Muqaddasiy, Jayhoniy ma'lumotlariga asoslanib, ilk o'rta asrlarda Sug'dga Kesh va Nasaf (Naxshab) yerlari kirgan deb ko'rsatib o'tadi va bu mulklarning alohida ekanligiga ham urg'u beradi.

Nasafdagi hunarmandchilik turlari to'g'risidagi ma'lumotlar o'rta asr manbalarida ham uchraydi. Abulkarim Sam'oniy Nasafda Zargarlar (as-Sog'a) ko'chasini tilga olgan (Kamaliddinov, 1993, s.102). Shulluktepa rabodidan qazishma davridan topilgan lojuvard ko'zli mis uzukni mana shu Zargarlar ko'chasida yashagan zargar yasagan bo'lsa ham ajabmas.

Xulosa va takliflar: Mavjud Sug'd tarixiga oid manbalarni tasniflab, ularni o'rganishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish joizligini ta'kidlab o'tish lozimdir:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI ... DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

Xitoy tilidagi manbalarda Naxshabni Kesh tarkibidagi mulk sifatida qaralishi, Sug'd (Zarafshon-Qashqadaryo havzalari)ning o'z hududlari bilan sug'diy diaspora tarqalgan hududlar (O'rta Sirdaryo havzalari, Yettisuv, Sharqiy Turkiston, Shimoli-G'arbiy Xitoy)ga doir ma'lumotlar ba'zan qo'shib yuborilganligi ushbu davr xitoy manbalarini yanada chuqur tahlil etishni taqozo etadi.

Janubiy Sug'd (Naxshab) tarixiga oid dastlabki ma'lumotlar "Avesto"dan boshlab, mil.avv. I ming yillikka taalluqli yunon, xitoy va qadimgi fors manbalarida aks etgan. Naxshabning konfederatsiya tarkibidagi maqomi masalasini o'rganishda *xitoy, yunon, lotin, qadimgi turk, baqtriy, suryoniy, arman, turkiy, fors va arab kabi ko'plab tillardagi tarixiy ma'lumotlarga murojaat etish lozim bo'ladi [8]*. Shu tarzdagi keng qamrovli tarixiy tahlil etish nafaqat Naxshab balki umuman Sug'd tarixini o'rganish uchun ham muhim hisoblanadi.

Sug'd tarixiga oid manbalarda konfederatsiyada savdo va savdo yo'llari yaxshi rivojlanganligi ta'kidlab o'tiladi. Naxshabning ham ushbu davrda muhim savdo yo'nalishida joylashganligini (Temir darvoza) hisobga olib, hunarmandchilik va savdo qay tartibda rivoj topganini yozma va arxeologik manbalarni qiyosiy tahlil etish orqali tadqiq qilish zarurdir.

Xullas ilk o'rta asrlar Naxshab tarixiga oid ma'lumotlar yuqorida aytib o'tganimizdek xitoy, sug'diy va arab-fors, yunon, arman, tilli manbalarda uchraydi. Ammo ushbu manbalarda ayrim uzulishlar mavjud bo'lib ularni tasniflash va tahlil etishda arxeologik ma'lumotlardan ham foydalanish zarurati mavjud. Shunga qaramay ular asosida Naxshabning Sug'd konfedratsiyasidagi maqomi bo'yicha bir qator muammolarga aniqlik kiritishda foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - Toshkent: Sharq, 1998.
2. O'zbekiston xalqlari tarixi. (S.P.Tolstov, V.Yu.Zohidov va boshqalar tahririda). T. I. - Toshkent: O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti. 1950.
3. Smirnova O.I. Sug'd tarixidan ocherklar. -M.: Nauka, 1970.
4. Sulaymonov R.X. Qadimgi Naxshab. –Samarqand-Toshkent: Muxlis. 2000.
5. "O'zbekiston tarixi manbalarda"
6. Trever K.V. 4—7-asrlarga oid arman manbalariga ko'ra kushonlar, xionitlar va eftalitlar. (O'rta Osiyo xalqlari tarixi haqida) // SA. XXI. 1954 yil.
7. Bichurin N. Ya. (Iakinf). O'rta Osiyoda qadimda yashagan xalqlar haqida ma'lumotlar to'plami. 3 jildda. - M. - L.: Ed. SSSR Fanlar akademiyasi. 1950.
8. Bernshtam A. N. Turklar va Markaziy Osiyo Xoy Chao tavsifida (726) // VDI. - M.: 1952. Tugusheva L. Yu. Syuan Zang tarjimai holining uyg'urcha varianti. – M.: Nauka, 1991;
9. Ekrem E. Hsüan-Tsang Seyahetnamesi'ne gore Turkiston. Basllmamış doktora tezi. Hacettepe universiteti, Sotsial Bilimler Enstitüsü. - Anqara, 2003.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

10. Bichurin N.Ya. (Jakinf). Ma'lumotlar to'plami Xordodbeh Ibn. Kitob al-masaliqva-l-mamalik (Yo'llar va mamlakatlar kitobi) / Noila Velixonovaning arabcha sharhlar, tadqiqotlar, ko'rsatkichlar va xaritalardan tarjimasi. – Boku: Elm, 1986 yil.
11. Qadimda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar haqida. 3 jildda. - M. - L.: SSSR Fanlar akademiyasining nashriyoti, 1950-1953

К ВОПРОСУ О ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ ЦЕЛОСТНОГО ПЕРЕНОСНОГО ЗНАЧЕНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЕДИНИЦЫ

Хамидова Т.М.
(Душанбе, Таджикистан)
канд. филол.наук
Научно-исследовательский университет
«Московский энергетический институт»
в г. Душанбе, Таджикистан

Аннотация

Типологическое сходство многих фразеологических оборотов основано на общности жизненного опыта, однотипности логических процессов мышления русского и таджикского народов, близкими фактами объективной действительности. А также на заимствованиях, обусловленных культурно-историческими связями, процессами взаимовлияния и взаимодействия языков.

Практика сопоставительно-типологических исследований фразеологических оборотов подтверждает мысль о сопоставимости фразеологических систем.

Ключевые слова: Типологическое сходство, культурно-исторические связи, дифференцированные черты, фразеологические системы русского и таджикского языков, полные фразеологические эквиваленты, грамматические формы компонентов, сопоставительный структурно-типологический анализ семантической структуры.

По мнению Н.М.Шанского, «...при определении специфики русского языка как неродного необходимо изучение не только дифференцированных черт, сторонних тому или иному родному языку, но и в не меньшей степени черт сходства, в которых проявляются языковые контакты или родственные узы русского и родного языков, а также наличие в языке как орудии познания и форме существования знания так называемых лингвистических универсалий». [8,200].

Во фразеологических системах русского и таджикского языков имеются полные фразеологические эквиваленты - единицы, совпадающие по значению и стилистической окраске, соотносимые по компонентному составу и грамматической организации. Например: *с головы до ног «аз сар то по»- целиком, полностью; руки не доходят «даст намерасад»- нет времени, возможности заняться чем-либо; ни мало ни много «на каму на зиёд» - ровно столько, сколько указано; как сквозь землю провалиться «гуё ки замин кафиду даромад» - неожиданно пропал, скрылся.*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

MUNDARIJA

№	Mualliflar F.I.Sh.	Maqola nomi	Bet
1	Shonazarov J.SH.	Kirish so'zi..	3
1- SHO'BA. O'ZBEKISTONDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI			
2	Xudaybergenova Z.N.	Turkiya Respublikasida turizm sanoatining xususiyatlari va rivojlantirish strategiyalari……	5
3	Muhammadiyeva Z. I.	XVIII asrda Buxoro amirligining tashqi siyosati	11
4	Ахмедова Г.А.	Новые подходы и перспективы в преподавании истории в процессе модернизации исторического образования….	16
5	Эшов Б.Ж.	Миграция жараёнлари ва Буюк Ипак йўли….	21
6	Qanoatova F.	O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida kasanachilikning o'rni……………………………………………	26
7	Erkayeva B.A., Eraliyev S.N.	Qashqadaryoda turizmni rivojlantirishda ziyoratgohlarning o'rni…………………………	32
8	Nosirova K.	Qo'qon xoni Umarxon davrida Qo'qon adabiy muhiti tarixidan...	36
9	Xasanboyeva M.	Ilk o'rta asrlar tarixida Sug'dda hunarmandchilik rivojlanishi cho'qqisi..............	41
10	Shaymanova N.Y.	Qashqadaryo viloyatining rekreatsiya resurslaridan foydalanish imkoniyatlari.............	44
11	Ахмедов Ж.З.	О выставке культуре и истории Узбекистана организованной в музее лувре........................	48
12	Saidusmonov B.A.	Тошкент вилоятида йўловчи ташиш тизими холати ва уни ривожлантириш чора тадбир-лар (XX-асрнинг иккинчи ярми мисолида)....	52
13	Egamberdiyev J.	Siyosiy jarayonlar globallashuvi tushunchasi va mazmun-mohiyati..	56
14	Shukurov S.J.	O'zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan davlatlararo iqtisodiy hamkorlik investitsional loyihalar tranzit, transport kommunikatsiyalarning o'rni..............	61
15	Abdullayev S., Nurmatov N.	Ziyoratgohlar - sakral geografiyaning o'rganish obyekti..	66
16	Jankobilov I, Abdullayev S.	"Muqaddas" va "sakral" tushunchalarining mohiyati va nisbati..	72
17	Botirov Sh.	Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi tushunchasi va mazmun-mohiyati......................	76
18	Olimova D.A.	Atmosfera havosi ifloslanishining inson	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI SHAHRISABZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI

	Eshonqulov Q.P.	timsoli..	251
53	Сохибов А.Р., Шевченко В.Н.	Историографический подход к изучению происхождения узбекиского народа и народности..	254
54	Ниёзов С.С.	Экоэстетик тафаккур тушунчасининг моҳияти ва уни шакллантирувчи объектив ва субъектив омиллар.....................................	262
55	O'ljayeva M.I.	"Ekologik madaniyatni shakklantirishda ekologik tarbiyaning o'rni va roli".................	270
56	Ismoilova M.E., Toirova M.T.	Tanbur, rubob, dutor va kamonli sozlarning yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati.	275
57	Suyarova Sh	Alovuddin Muhammad Xorazmshoh va Chingizxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarning ahamiyati............................	281
58	Baratov X	Ilk o'rta asrlar Naxshab tarixiga doir ayrim manbalar tasnifi...	284
59	Хамидова Т.М.	К вопросу о процессе формирования целостного переносного значения фразеологической единицы...........................	290
60	Джолдыбаев Ж.Т.	Надгробный памятник Козы-корпеша и Баян- Сулу как важный центр паломничества..	294
61	Хушваков Н.О.	Палеолит даврига оид сийпантош ҳамда қадимги давр археологик ёдгорликларида археопарк ташкил этиш ҳақида.....................	297
62	Xoliqulova M., Inoyatova M., Normurodova B.	O'zbekistonda ziyoratgoh va qadamjolar,turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish istiqbollari........	302
63	Ashirov U., Valiyev Z.	Qashqadaryo viloyati hududidagi odina masjidi...	309
64	Quvvatov R., Chorshanbiyev T.	Amir Temur va u tug'ilgan hududning O'zbekiston tarixidagi ahamiyati.....................	312
65	G'oyimov U., Qolqonova M.	Yoshlar ma'naviyatida Amir Temur siymosining tutgan o'rni va ta'limiy ahamiyati..	316
66	Ismoilova M., Toirova M	Tanbur, rubob, dutor va kamonli sozlarning yoshlarni tarbiyalashdagi ahamiyati...................	318
67	Meyliyeva S	Buxoro Amirligida elchilarni kutib olish estetikasi haqida ayrim ma'lumotlar.................	323
68	Maxmudov D.	Sug'diylar hayotida ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy jarayonlarni o'zgarishi (ilk o'rta asrlar misolida)...	330

XODIMLAR BO'LIMI
ASLIGA TO'G'RI